



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


**Doimiy aholi soni.** Navoiy viloyati doimiy aholi soni 2020- yil 1- aprel holatiga 1000,6 ming kishini tashkil etib, 2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 18,0 ming kishiga yoki 1,8% ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 489,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9%), qishloq aholisi soni 511,2 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 51,1 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**

**2020-yil yanvar-mart holatiga**

- Aholi soni 2019- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 18,0 ming kishiga ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni 4,6 ming nafarni tashkil etdi.
- 1,1 mingta vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida 1,2 mingta nikoh va 0,3 mingta ajralishlar ro'yxatga olindi.

**Navoiy viloyati aholisining umumiy o'sishi  
(2020- yil yanvar-mart oylarida)**



**2020- yil  
yanvar-mart**

**Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi**




# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020- yil 1- aprel holatiga, ming kishi)



**Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1- aprel holatiga eng ko'p aholi soni Xatirchi tumanida 199,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 20,0 % ni) va Qiziltepa tumanida 152,1 ming kishini (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Tomdi tumanida 14,8 ming kishini (1,5 %) tashkil etdi.**

**Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-martga nisbatan Navoiy shahrida 5,8 % ni, Navbahor tumanida 1,8 % ni, Xatirchi tumanida 1,9 % ni, Qiziltepa tumanida 1,6 % ni va Konimex tumanida 2,0 % ni aksincha eng kam o'sish sur'ati Uchquduq tumanida 0,5 % ni tashkil etdi.**



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soni.

(2020- yil 1- aprel holatiga)

	<u>Jami aholi</u>	<u>Shahar aholisi</u>	<u>Qishloq aholisi</u>	<u>Erkaklar</u>	<u>Ayollar</u>	<u>1 kv. km ga to'g'ri keladiganlar soni</u>
Viloyat bo'yicha:	1 000 584	489 352	511 232	507 394	493 190	9,0
shaharlar:						
Navoiy	144 568	144 568	-	72 907	71 661	2410,0
Zarafshon	84 092	84 092	-	44 039	40 053	4205,0
tumanlar:						
Karmana	126 344	41 829	84 515	62 632	63 712	134,4
Konimex	35 755	16 253	19 502	18 850	16 905	3,9
Qiziltepa	152 131	48 411	103 720	76 875	75 256	69,5
Navbahor	113 104	16 216	96 888	57 260	55 844	72,0
Nurota	92 770	54 999	37 771	47 837	44 933	14,2
Tomdi	14 841	4 725	10 116	7 555	7 286	0,3
Uchquduq	37 298	32 674	4 624	18 507	18 791	0,8
Xatirchi	199 681	45 585	154 096	100 932	98 749	140,6

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1- aprel holatiga aholining eng ko'p shahar joylaridagi ulushi viloyatning shahar aholisiga nisbatan Nurota tumanida 11,2 % ni, Qiziltepa tumanida 9,9 % ni, Xatirchi tumanida 9,3 % ni, Karmana tumanida 8,5 % ni va Uchquduq tumanida 6,7 % ni, aksincha eng kam shahar aholi sonining ulushi Konimex hamda Navbahor tumanlarida 3,3 % ni, va Tomdi tumanida 1,0 % ni tashkil etadi. Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1- aprel holatiga aholining eng ko'p qishloq joylaridagi ulushi Xatirchi tumanida 30,1 % ni, Qiziltepa tumanida 20,3 % ni, Navbahor tumanida 19,0 % ni va Karmana tumanida 16,5 % ni, aksincha eng kam qishloq aholi sonining ulushi Uchquduq tumanida 0,9 % ni va Tomdi tumanida 1,9 % ni tashkil etadi.

2020- yil  
yanvar-mart

Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi




# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi sonida qishloq va shahar joylardagi aholi soninig ulushi  
(2020- yil 1- aprel holatiga, foizda)





# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

### Aholing tabiiy harakati 2020- yil yanvar-mart holatiga

	2019- yil kishida	2020- yil kishida	o`shish, kamayish	2019- yil har ming kishiga	2020- yil har ming kishiga
Tug'ilganlar	4250	4584	334	17,6	18,5
O'lganlar	998	1061	63	4,1	4,3
Tabiiy o`shish	3252	3523	271	13,5	14,2
Nikohlar	1223	1178	-45	5,1	4,7
Ajralishlar	223	270	47	0,9	1,1

### 2020- yil yanvar-mart holatiga aholining tabiiy harakati





# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-mart** oylarida 4584 bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), o'tgan yilga mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,5 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega oshgan (2019- yilning yanvar-mart oylarida 17,6 promille bo'lgan). Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Zarafshon shahrida (17,2 promilledan 18,7 promillega), Navoiy shahrida (18,2 promilledan 19,3 promillega), Tomdi tumanida (7,3 promilledan 18,0 promillega), Konimex tumanida (16,9 promilledan 18,7 promillega), Qiziltepa tumanida (15,3 promilledan 17,1 promillega), Nurota tumanida (16,4 promilledan 17,8 promillega), va Xatirchi tumanida (19,2 promilledan 20,3 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Navbahor tumanida (17,5 promilledan 16,6 promillega), Karmana tumanida (18,6 promilledan 17,9 promillega) va Uchquduq tumanida (21,3 promilledan 19,1 promillega) kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



### Tug'ilganlar 2020- yil yanvar-mart holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati (%) da
Navoiy viloyati	4250	4584	107,9
Navoiy sh.	611	692	111,6
Zarafshon sh.	350	391	111,7
Karmana t.	588	561	95,4
Konimex t.	146	166	113,7
Qiziltepa t.	562	645	114,8
Navbahor t.	479	467	97,5
Nurota t.	369	411	111,4
Tomdi t.	26	66	253,8
Uchquduq t.	195	177	90,8
Xatirchi t.	924	1008	109,1

2020- yil  
yanvar-mart

Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Vafot etganlar. 2020- yilning yanvar-mart** oylarida 1061 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega oshgan (2019- yilning yanvar-mart oylarida 4,1 promille bo'lgan). O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Zarafshon shahrida (2,8 promilledan 3,4 promillega), Navoiy shahrida (4,3 promilledan 4,5 promillega), Konimex (5,0 promilledan 5,1 promillega), Qiziltepa (3,7 promilledan 4,2 promillega), Karmana (4,2 promilledan 5,0 promillega) va Tomdi (3,1 promilledan 3,5 promillega) tumanlarida o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Navbahor (4,5 promilledan 4,1 promillega), Nurota (4,8 promilledan 4,4 promillega), Uchquduq (4,4 promilledan 3,9 promillega) va Xatirchi (4,2 promilledan 4,1 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Vafot etganlar 2020- yil yanvar-mart holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati (%) da
Navoiy viloyati	998	1061	106,3
Navoiy sh.	145	161	111,0
Zarafshon sh.	58	72	124,1
Karmana t.	133	158	118,8
Konimex t.	43	45	104,6
Qiziltepa t.	136	158	116,2
Navbahor t.	124	116	93,5
Nurota t.	107	101	94,4
Tomdi t.	11	13	118,2
Uchquduq t.	40	36	90,0
Xatirchi t.	201	201	100,0



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Nikoh.** 2020- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1178 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi. 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi. (2019- yilning yanvar-mart oylarida 5,1 promille bo'lgan). Tuzilgan nikohlar koeffitsiyenti 2019 yilning mos davriga nisbatan Konimex tumanida (4,5 promilledan 5,2 promillega), Navbahor tumanida (3,8 promilledan 4,3 promillega), Karmana tumanida (5,3 promilledan 5,5 promillega) va Nurota tumanida (3,6 promilledan 3,8 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayish Navoiy shahrida (5,9 promilledan 5,0 promillega), Zarafshon shahrida (4,9 promilledan 4,5 promillega), Qiziltepa (5,6 promilledan 5,2 promillega) va Xatirchi (5,6 promilledan 4,6 promillega) tumalariga to'g'ri kelmoqda.



### Tuzilgan nikohlar 2020- yil yanvar-mart holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati (%) da
Navoiy viloyati	1223	1178	96,3
Navoiy sh.	197	178	90,4
Zarafshon sh.	100	93	93,0
Karmana t.	168	174	103,6
Konimex t.	39	46	117,9
Qiziltepa t.	207	197	95,2
Navbahor t.	105	120	114,3
Nurota t.	81	87	107,4
Tomdi t.	15	15	100,0
Uchquduq t.	41	42	102,4
Xatirchi t.	270	226	81,9

**2020- yil  
yanvar-mart**

**Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi**






# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi  
2020- yil 1- aprel holatiga,  
(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



- qon aylanish tizimi kasalliklaridan
- baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan
- o'simalardan
- nafas olish azolari kasalliklaridan
- ovqat hazm qilish azolari kasalliklaridan
- yuqumli va parazitlardan
- boshqa kasalliklardan

2020- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 66,5 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,7 %i o'simalardan, 5,9 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,4 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 2,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 10,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 37 kishini tashkil etib shundan 62,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,9 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 16,2 %i tug'ma anomaliyalardan va 2,7 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

**Nikohdan ajralishlar.** 2020- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 270 kishi nikohdan ajralganligi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko'paygan (2019- yilning yanvar-mart oylarida 1,0 promille bo'lgan). Ajrimlar koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan Zarafshon shahrida (0,8 promilledan 1,5 promillega), Karmana tumanida (0,8 promilledan 1,7 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Konimex (1,3 promilledan 1,0 promillega), Qiziltepa (0,8 promilledan 0,7 promillega), Uchquduq (1,4 promilledan 1,3 promillega) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



### Nikohdan ajralganlar 2020- yil yanvar-mart holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	223	270	121,1
Navoiy sh.	55	61	110,9
Zarafshon sh.	17	31	182,4
Karmana t.	26	52	200
Konimex t.	11	9	81,8
Qiziltepa t.	28	26	92,9
Navbahor t.	18	27	150,0
Nurota t.	10	13	130,0
Tomdi t.	1	1	100,0
Uchquduq t.	18	4	22,2
Xatirchi t.	39	46	117,9

2020- yil  
yanvar-mart

Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

	2019- yil yanvar- mart	2020- yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	2706	2418
Ko'chib ketganlar	2865	2457
Migratsiya saldosi	-159	-39



Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni  
2020- yil yanvar-mart holatiga, (birlikda)





# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1-aprel holatiga, ko'chib kelganlar yuqori bo'lgan tumanlar 2019- yilning mos davriga nisbatan Konimex tumanida 203,6 % ni, Navoiy shahrida 134,8 % ni, Tomdi tumanida 130,0 % ni, aksincha eng kam ko'chib kelganlar bo'yicha Karmana tumanida 53,3 % ni, Nurota tumanida 56,6 % ni, Xatirchi tumanida 57,8 % ni, Navbahor tumanida 60,1 % ni, Uchquduq tumanida 74,2 % ni, Qiziltepa tumanida 75,7 % ni va Zarafshon shahrida 94,5 % ni tashkil etdi.



### Ko'chib kelganlar yanvar-mart holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati (%)da
Navoiy viloyati	2706	2418	89,4
Navoiy sh.	630	849	134,8
Zarafshon sh.	362	343	94,5
Karmana t.	617	329	53,3
Konimex t.	84	171	203,6
Qiziltepa t.	173	131	75,7
Navbahor t.	203	122	60,1
Nurota t.	122	69	56,6
Tomdi t.	120	156	130,0
Uchquduq t.	120	89	74,2
Xatirchi t.	275	159	57,8



# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

### Ko`chib ketganlar yanvar-mart holatiga, (kishida)

	2019- yil	2020- yil	O'sish sur'ati (%) da
Navoiy viloyati	2865	2457	85,8
Navoiy sh.	896	666	74,3
Zarafshon sh.	416	385	92,5
Karmana t.	223	270	121,1
Konimex t.	101	108	106,9
Qiziltepa t.	164	197	120,1
Navbahor t.	202	200	99,0
Nurota t.	114	132	115,8
Tomdi t.	64	43	67,2
Uchquduq t.	272	166	61,0
Xatirchi t.	413	290	70,2

Viloyatda hududlar kesimida tahlillar shuni ko`rsatmoqdaki, **2020- yil 1- aprel** holatiga, ko`chib ketish yuqori bo'lgan tumanlar 2019- yilning mos davriga nisbatan Karmana tumanida 121,1 % ni, Qiziltepa tumanida 120,1 % ni, Nurota tumanida 115,8 % ni, Konimex tumanida 106,9 % ni aksincha eng kam ko`chib ketganlar bo'yicha Uchquduq tumanida 61,0 %ni, Tomdi tumanida 67,2 % ni, Navoiy shahrida 74,3 % ni, Xatirchi tumanida 70,2 % ni, Zarafshon shahrida 92,5 % ni, Navbahor tumanida 99,0 % ni tashkil etdi.




# NAVOIY VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

## Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni  
2020- yil yanvar-mart holatiga, (birlikda)



Navoiy viloyati statistika  
boshqarmasi  
Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi

Tel.:(79) 223-07-41